

“QIBRAY-TARIXNING QADIM IZLARI VA TABIIY GO’ZALLIKLAR MASKANI”

Sayfullayeva Amina

UzMU magistranti

Rustam Zakirovich Rayimjanov,

O‘zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

kafedrasi katta o‘qituvchisi, g.f.n.

E-mail: rustam19761206@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Toshkent viloyatining qadimiy va go‘zal tumanlaridan biri bo‘lgan Qibray hududining tarixiy ildizlari, arxeologik yodgorliklari, madaniy merosi hamda tabiiy landshaftlari tahlil etiladi. Qibrayning miloddan avvalgi davrlardan boshlab aholi yashagan maskan sifatida shakllanib borishi, bu yerda topilgan qadimiy sopol buyumlar, qadimiy qishloqlar xarobalari va boshqa moddiy madaniyat namunalari asosida yoritiladi. Shu bilan birga, Qibray tumani o‘zining so‘lim tog‘ etaklari, o‘rmonzorlar, daryo va soylar, dam olish maskanlari bilan ajralib turishi, bugungi kunda turizm va ekologik rekreatsiya yo‘nalishida katta salohiyatga ega ekani ilmiy va amaliy jihatdan asoslab beriladi. Ushbu maqola Qibray tumanining madaniy-tarixiy va tabiiy-boylklarini o‘rganish, ulardan oqilona foydalanish va saqlab qolish masalalarini ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: Qibray, qadimiy tarix, arxeologiya, tabiiy go‘zalliklar, madaniy meros, dam olish maskanlari, ekoturizm, Toshkent viloyati, tarixiy obidalar, ekologik muhit.

Аннотация: В данной статье рассматривается Кибрайский район Ташкентской области как территория, обладающая богатым историческим наследием и уникальной природной красотой. Описаны археологические находки, свидетельствующие о древнем заселении этой местности с доисторических времён. Также анализируется культурное значение региона, наличие исторических памятников, традиций и обычаев. Отдельное внимание уделено природным особенностям Кибрая: зелёным холмам, водоёмам, лесным массивам и зонам отдыха. Автор подчёркивает туристический и

рекреационный потенциал района, а также необходимость сохранения его культурно-природного богатства.

Ключевые слова: Кибрай, историческое наследие, археология, природные достопримечательности, культурные памятники, туризм, экология, Ташкентская область, рекреация.

Abstract: This article explores Qibray District in Tashkent Region as an area rich in historical heritage and natural beauty. It highlights archaeological findings that indicate human settlement in the region since ancient times. The study also discusses the cultural importance of the district, its historical monuments, traditions, and legacy. Special attention is given to Qibray’s natural features, including lush hills, rivers, forests, and recreational zones. The author emphasizes the district’s tourism and ecological potential and the importance of preserving its cultural and environmental treasures.

Keywords: Qibray, historical heritage, archaeology, natural beauty, cultural monuments, tourism, ecology, Tashkent Region, recreation.

Qibray tumani- Toshkent viloyatidagi tuman bo’lib, 1933-yil 1-dekabrda tashkil etilgan. Dastlab tuman 1933-1991-yillar oralig’ida Orjonikidze deb nomlangan. 1991-yildan buyon Qibray deb atala boshlangan. 1962-yil Kalinin (hozirgi Zangiota) tumani bilan birlashtirildi. 1964-yil 31-dekabrda qaytadan tuzildi. Tumanning shakllanish bosqichi o’z tarixiga ega.

Tuman kelib chiqishi haqida turlicha ma’lumotlar uchraydi. Qibray ya’ni shaharcha bu nom kelib chiqishiga turkiy xalqlarning dulat qabilasining bir urug’i “qibiray” nomi bilan atalishi sabab bo’lgan. Bu urug’ vakillari afsonaviy Qibiray botiridan tarqalgan degan rivoyat bor. [1] VI-VIII asrlarda turli etnik elat va urug’larning o’zaro yaqinlashuvi natijasida til va lahjalari bir-biriga yaqin bo’lgan turli guruhlar paydo bo’la boshlagan. Ularni yagona nom bilan turkiylar deb atashgan. Yozma manbalarda mana shu “Turkiylar” deb ataluvchi 92ta elat va qabilalarning nomlari orasida ushbu tumandagi ayrim turar joy nomlari uchrab turadi. Bu urug’larning nomlari bilan bog’liq bo’lgan turar-joy va qarorgohlarning hozir ham shunday atalishi, bu nomlarning juda uzoq vaqtlardan beri deyarli o’zgarishsiz saqlanib qolganini ko’rsatadi. Lekin bular orasida bir istisno uchraydi. U ham bo’lsa tuman va qo’rg’on nomi bo’lgan “Qibray” atamasi haqida. XVI-XIX asr yozma manbalarning hammasida bunday atama va urug’ nomi bu ko’rinishda uchramaydi. Ularning barchasida asosan “qiray” nomi qaytarilgan va bu nom

doimo tumandagi boshqa joy nomlari bilan birga yozib keltirilgan. “Qiray” nomi boshqa urug’lar kabi juda qadimgi jangovar turkiy qabilalardan bo’lib, bu nom boshqa yerlarda ham hozirgacha uchrab turadi. Masalan, bunday elat nomi Shimoliy Qozog’istonning To’rg’ay viloyatida Tengiz ko’liga quyiladigan daryo va Buryatiya Respublikasining shimolidagi Bratsk GESiga quyiladigan Iya daryosining bir o’zanida saqlanib qolgan. Demak, tuman nomi qadimgi “qiray” urug’i nomi bilan bog’liq bo’lib, keyinchalik bu so’zga “b” harfining kirib qolishi ruscha talaffuzni osonlashtirish natijasida bo’lishi mumkin degan fikr mulohazalar mavjud [2].

Qibray tumani o’zining musaffo havosi. Ajoyib tabiati, so’lim va ko’rkam bog’lari bilan azaldan tilga tushgan. O’nlab dam olish maskanlari, sanatoriy va oromgohlarning aynan shu yerda joylashganligi ham bejiz emas. Tuman respublikamiz yozuvchi va shoirlari, kinochilari, matbaachilari uchun qulay ijod maskani hisoblanadi. Mashhur Do’rmon yozuvchilar uyi, kinochilar uyi, “Sharq” nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi sihatgohi, taniqli ijodkorlarning o’nlab dala hovlilari tumanda joylashgan, O’zbek adabiyotida keying o’n yilliklar davrida yaratilgan eng sara asarlar shu zaminda tug’ilgan desak also mubolag’a bo’lmaydi. Shuni ham ta’kidlab o’tish joizki, xalqimizning eng faxrli maskanlaridan biri bo’lgan, dunyo nazarida turgan, O’zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti Islom Karimovning “Do’rmon” qarorgohi ham tumanning eng xushmanzara yeriga joylashgan. Bu qarorgohda oliy darajadagi uchrashuvlar, muloqotlar bo’lib o’tgan, tarixiy, davlatlararo jahon ahamiyatiga molik hujjatlarga imzo chekilgan maskan deb e’tirof etiladi.

Ayrim qo’lyozmalarda ba’zi urug’ nomlarining kelib chiqishi haqida ham ma’lumotlar bor. Masalan, 1663-1664 yillarda Abulg’oziy Baxodirxon tomonidan yozilgan “Shajarai turk” asarida Do’rmon elining paydo bo’lishi va shakllanishi haqida quyidagi rivoyat keltirilgan. Unda yozilishicha, mog’ullarning Bichinqiyon degan podshohning besh o’g’li bo’lgan. Otasi o’zidan keyin eng kenja o’g’lini o’z o’rniga taxt vorisi bo’lishini vasiyat qilgan bo’ladi. Ammo to’rt o’g’il bunga qarshi bo’lib, arazlab o’z yurtidan bosh olib, uzoq yurtlarga ketib qoladilar. Yot elda bularga “do’rmonlar” deb nom qo’yilgan bo’ladi, chunki mo’g’ullar to’rtni do’rmon der ekanlar. Bu to’rt o’g’il vafot etganidan so’ng ulardan tarqalgan avlodlar o’z qarindosh-urug’lari huzuriga qaytib kelib ular bilan birga yashay boshlaganlar. SHunday qilib tuman tarixi uzoq o’tmishga borib taqaladi. Hozirgi kunda bu yerda



yashayotgan mahalliy aholi o'z vaqtida O'rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga katta hissa qo'shgan buyuk xalqlarning avlodlari hisoblanadi.

Qibray tumanini ko'pgina buyuk shaxslarning vatani deb aytishimiz mumkin. Shunday buyuk shaxslardan, koinotni zabt etgan o'zbek limoni asoschisi, O'zbekistonda sitrus mevalilik maktabining asoschisi, xalq seleksioneri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan agronom, O'zbekiston Fanlar akademiyasi faxriy akademik Zayniddin Faxriddinovni (1922-2000) e'tirof etishimiz mumkin.



Akademik 1965-1995 yillarda Qibray tumani hududida 70gektarlik issiqxona bunyod etib, limonzor yaratilishiga hissa qo'shdi. Uning har gektaridan 30 tonnadan hosil olishga erishilgan. U nafaqat respublikamiz aholi dasturxoniga tortiq etilgan



balki, eksport ham qilingan. Hozirgi kunda 1200 gektar yerga limon ko'chatlari ekilib, 60000 tonna hosil olinadi. Bundan 2400 tonnasi eksport qilinadi. Eng qizigi, ilk bor issiqxonadagi limon gullaridan asal olishga erishilgan. Xalq seleksioneri Zayniddin Faxriddinov tomonidan “F-2 Yubileyiniy”, “Zolotoye yabloko”, “F-1 Toshkent”, “Meyer” singari mahalliy navlar yaratildi. Seleksioner “Novogruzin” naviga “Meyer” navini ulash orqali yangi “F-1 Toshkent” navini yaratishga muvaffaq bo'ldi. 1967-yilda O'zbekiston iqlimiga mos keladigan limon ko'chati meva berdi. Limon mevasi tarkibida 4 foizgacha limon kislotasi bo'lib, po'sti bilan iste'mol qilsa bo'ladi. Seleksionerning “F-1Toshkent”, “F2-Yalang'och”, “F3-O'zbekiston” navlari 450 grammdan 2,5 kilogrammgacha bo'lgan. O'zbek olimi, akademik yaratgan 10dan ortiq limon navi “O'zbekiston” apelsin navi, “Toshkent” mandarin navi nafaqat yurtimizda bundan tashqari, chet davlatlarda ham yetishtiriladi. Akademik ko'pgina navlarni yaratdi va bu navlarning mukammal agrotexnikasini ishlab chiqdi. Bu navlar MDH mamlakatlarida ko'plab issiqxonalarda sanoat usulida yetishtiriladigan asosiy navlar hisoblanadi. Faxriddinov tashabbusi va rahbarligida O'zbekistonning ko'pgina viloyatlari xo'jaliklarida issiqxona limonzorlari barpo etilgan. O'zbek bog'dorchilik sir-asrorlarini dunyoga yoyishga munosib hissa qo'shgan bu zahmatkash insonning izlanishlarini nafaqat soha vakillari, jurnalistlar, yozuvchilar, jamoat arboblari, balki hatto fazogirlarning ham qiziqishiga sabab bo'lgan. Chunki aholining sitrus mevalarga ehtiyoji doimo yuqori bo'lgan. Jumladan, kosmonavt-uchuvchi V.Grechko “...Marsda kelajakda olma gullashi mumkin. Ana o'shanda ishonchim komilki, sizning limonlaringiz ham u yerda hosil berajak. Katta rahmatim zaminqadar ehtiromimni qabul etgaysiz” deb o'z dil izhorlarini bildiradi. O'zbekiston Respublikasining 1-prezidenti Islom Karimov “Bu pokiza boqqa kirsang, bahri diling ravshan bo'lur” deb aytgan.[3]

Bu bog'dagi limonning kattaligini ko'rgan chet ellik mehmonlar ham hayratini yashira olmagan. Ayniqsa, Arabistondan kelgan mehmonlar go'zal bu limonzordagi limon daraxtida osilib turgan har bir donasi 2-2,5 kilogramm keladigan limonlarni ko'rib, bu qovunmi, qovun daraxtda o'sadimi deb hayratini yashira olmay qolgan. Shundan so'ng akademik Arabistonga bir necha bor safar qiladi va u yerda ham limonzor bog' yaratib keladi.

Qibray tumanining qulay tabiiy sharoiti, iqlimi, tabiati va resurslari qishloq xo'jaligini takomillashishiga imkon yaratib beradi. Tumanning qishloq xo'jaligiga



xos bo'lgan imkoniyatlarini uzumchilik ustasi bo'lgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi faxriy akademigi Rizamat Musamuhamedovning ishlarida ko'rishimiz mumkin. Akademik 1950-yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligining uzumchilik bo'yicha bosh agronomi bo'lgan. Musamuhamedov rahbarligida O'rta Osiyoda 3600 gektardan ortiq tokzor va bog'lar barpo etgan. Akademik o'ndan ortiq uzum navlarini yaratgan. Olimning “Tokchilik bo'yicha qo'llanma”, “Mo'l uzum hosili yetishtirishdagi tajribalarim” kabi kitoblari bor. Toshkent viloyati Qibray tumanidagi uzumchilik, Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi bog'dorchilik uzumchilik shirkat xo'jaliklariga, Toshkent shahri ko'chalaridan biriga Musamuhamedov nomi berilgan. Shuningdek, O'zbekiston o'simlikshunoslik institutida chiqarilgan va O'zbekiston, Tojikistonda rayonlashtirilgan serhosil tok navi Musamuhamedov sharafiga Rizamat deb atalgan.[3]

Qibray tumani o'zining iqlimi, suv resurslariga boyligi, tabiatining go'zal va rang barang bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Tumanning tuproq qatlaminin unumdorlik holati, o'simliklarning serhosilligi va ertapishar imkoniyatlarini oshirib, agro olaminin imkoniyatlarini kengaytirib rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Suyun Qorayev O'zbekiston viloyatlari toponimlari. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi . Давлат илмий нашриети. Тошкент- 700129
- 2.MUSTAQILLIKNING MUNAVVAR YO'LI. Qibray tumani “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Bosh tahririyati , 2001 yil.
3. <https://uz.wikipedia.org>.

Research Science and Innovation House